

**PEDAGOGIKA FANINING ILMIY-TADQIQOT METODLAR
O'RGANISH**

*Ilmiy Rahbar: **Rasulova Iroda Mansurovna***

Psixologiya fanlari nomzodi PhD V. B Dotsent ShDP O'qtuvchisi

*Muallifi: **Do'rmanova Shoira Abdimalik qiz***

shoiradurmonova1997@gmail.com

*Shahrisabz pedagogika instituti pedagogika fakulteti biologiya yo'nalish 2-
kurs talabasi*

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada zamonaviy pedagogika fanining ilmiy-tadqiqot metodlarni yaratish, Sub'ektiv-ob' ekti, kategoriyalar, didaktika, demokratik, ilmiy tadqiqot metodi, fundamental, dolzarblik, kompetentlik

Kalit so'zlar: Qiyoslash, kuzatish, suhbat, kibernetik, statistik, empirik tadqiqot, eksperiment, o'lchash, hisoblash, poyicha, quchish metodlari

Kirish: Hozirgi kunda yanilanayotgan O'zbekistonning taraqqiyot yo'li fanning turli metod yo'nalishlarda rivojlanishiga keng yo'l ochib berdi. Ma'lumki, inson o'z ijodiy izlanishlari asosida dunyoni o'zgartiradi va o'zini yaratuvchi, ijodkor, kashfiyotchi sifatida namoyon etadi. Har qanday fan o'zining ilmiy-tadqiqot metodlariga ega. Bu metodlari orqali u o'z mazmunini boyitib, yangilab boradi. Hayotda va obyektiv dunyoni bilish nazariyasida nimani o'rgatish va qanday o'rgatish kerak, kimni qanday tarbiyalash lozim degan masalalar mavjud bo'lib ular o'zaro bog'liqdir. Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari qanchalik mukammal, aqlga muvofiq, to'g'ri tanlansa ta'lim-tarbiya mazmunini yangilash va takomillashtirish shu darajada yaxshilanadi, pedagogika fan ham boyib boradi. Pedagogika o'z mazmunini boyitish va yangilash maqsaida mavjud pedagogic hodisa hamda jarayonlarni uning maqsadi va vazifalariga muvofiq keladigan metodlari bilan o'rganadi. Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari shaxsni tarbiyalash, uning muayyan yo'nalishlarda chuqur, puxta ilmiy bilimlarni berish tamoyillari



obyekti va subyektiv omillarini aniqlovchi pedagogik jarayonning ichki mohiyati, aloqa va qononiyatlarini maxsus teshirish va bilish usullaridir.

Tarbiya metodi {yunoncha “metodos”- yo’l} tarbiya maqsadiga erishishning yo’li. Maktab amaliyotiga tatbiq etilganda, metodlar-bu tarbiyalanuchilarning ongi irodasi, tuyg’ulari va xulqiga ta’sir etish usullaridir.

Zamonaviy sharoitda , pedagogik yo’lanishda tadqiqotlarni olib borishda quyida metodlardan foydalanilmoqda.

1. Pedagogik kuzatish metodi
2. Suhbat metod
3. Bolalar ijodiy o’rganish metodi
4. Test, So’rovnomalar metodi
5. Maktab hujjatlarni tahlil qilish metod
6. Eksperimet-tajriba sinov metodi
7. Statistika ma’lumotlarini tahlil qilish metodi
8. Matematika –kibernetika metodi
9. Pedagogik tahlil metodi
10. Anketa metodi
11. Intervyu metodi
12. Ruchka stol o’rtasida metodi
13. Aqliy hujum metodi
14. Yalpi fikiriy hujum metod
15. Qora quti metodi
16. Qizil va yashil rangli kartochalar ishlash metodi
17. Quchish metod
18. Poyizcha metodi
19. Xotira metodi
20. Mika metodi va boshqa metodlar asosiy pedagogik darslarni qiziqib o’tadi.

Kuzatish metodi. Pedagogikaning kuzatish murakkab va o’ziga xos xususiyatlarga ega.kuzatish aniq maqsad asosida, uzluksiz, izchik va tizimli amalga



oshirilsa, kutilga natijani qo'liga kiritish mumkin. Ularning oqibatida natijalarini bilishga yordam beradi va shu asnoda yaratilgan yangi kashfiyotlar uchun dalil, omillar yig'ish imkonini tug'diradi. Bu metodni qo'llanish jarayoni qo'llanish jarayoni ancha murakkab bo'lib, nazarda tutilgan maqsad qanday amalga oshayotganligini aniqlash, o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro aloqalari, individual farqlarini qiyoslash uchun ham qo'llaniladi. Tajribalarning ko'rsatishicha, maqsad asosidagi kuzatuv ma'lum reja asosida yig'ilgan dalillar haqiqiy tahlil qilish, qiyoslash asosida, tashkil etilsagina samarali bo'ladi. Kuzatish faqat oddiy hodisalarni kuzatish, ayrim dalillarni yig'ish, hisobga olish, aniqlash uchungina emas, balki ta'lim-tarbiya jarayonini yaxshilash va mukammallashtirish maqsadida amalga oshiriladi. Odatda pedagogik kuzatish orqali o'quvchilarning fanilarni o'zlashtirishlar, ularning xulq-atvori va muomalalaridagi o'zgarishlarini hisobga olish va tegishli ta'limiy-tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish yo'llarini belgilash uchun qo'llaniladi. Ilmiy kuzatishlar esa nafaqat o'quvchilarning tabiiy faoliyatini, balki ularning ilmiy dunyoqarashlari shakllanishi, fikrlash jarayoni kuchi, xulosalar chiqarishdagi faolliklarini aniqlaydi, ularni taxlil etadi va tegishli xulosalar chiqarishga imkoniyat tug'diradi. Bunday kuzatishlar pedagogika fani mazmunining boyishga sabab bo'ladi. Pedagogik kuzatuvni tashkil etishda xatoga yo'l qo'ymalik muhimdir. Buning uchun tadqiqotchidan quydagi talab etiladi.

1. Kuzatuv jaratonida aniq maqsadga egalik.
2. Kuzatishni tizimli ravishda yo'lga qo'yish.
3. Kuzatishni har bir bosqichida muayyan hal etish
4. Har bir holatning mohiyatini sinchiklab o'rganish.
5. Xulos chiqarishga shoshilmaslik.

Suhbat metodi: Bu metod pedagogik kuzatish jarayonida ega bo'lingan ma'lumotlarni boyitish, mavjud holatga to'g'ri baho berish, muammining yechimni topishga imkon beruvchi pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, tajriba-sinov ishlari subyektlari imkoniyatlarini muammo yechimiga jalb etishga yordam beradi. Odatda, suhbat metodi maktab o'qituvchilar va o'quvchilar jamoasi bilan, ota-ona va keng jamoatchilik bilan yakka va guruhli tartibda ish olib borilganda qo'llaniladi. Bunda



suhbat metodini tadbiq etishdan oldin maqsadli reja tuziladi, amalga oshirish yo'llari belgilanadi, natijalar tahlil qilinadi vategishli xulosa chiqariladi. Shuningdek, tadqiqotchining suhbat olib boorish va uni kerakli tomonga yo'naltira olishni bilishi' suhbatdoshining ruhiy holatiga qarab suhbat ohangini moslashtirish bilishi g'oyat muhimdir.

1. Suhbat uchun oldindan savol tuzish:
2. Vaqt va o'tkazish joyini belgilash
3. Suhbat ishtirokchilarning soni va kasblaridan xabardor bo'lishi
4. Suhbat uchun qulay sharoit va erkin gaplashish imkonini yaratish:

Suhbat natijalarini xudlik bilan tahlil qilish, qiyoslashish, tegishli xulosa chiqarish, lozim bo'lsa qo'shimchalar kiritish va maktab hayotiga tadbiq etish pedagogik jihatdan qimmatildir.

Bolalar ijodini o'rganish metodi. Pedagogik tadqiqot metodlar ichida bolalar ijodini tabiiy holatda o'rganish va ilmiy xulosalar chiqarish metodi mavjud. Bunda maktab o'quvchilarning o'ziga xos individual tartibdagi faoliyatlariga doir ma'lumotlar tahlil qilinadi, xulosalar chiqariladi. Maqsad O'zbekiston yoshlarining tipik obrazlari va ularda ijobiy xislatlarni shakllantirishdir. Shu sababli yoshlarning turli yozma daftarlari tutgan kundaliklar, yozgan xatlari, she'ri va hikoyalari, hayotiy rejalar, insholari, turli yozma hisobatlari bolalar ijodini o'rganish uchun manba bo'lib xizmat qiladi. Oqibatda, maktab o'quvchilar orasidan yetishib chiqayotgan qobiliyatli, iste'dodli yoshlarni ertaroq aniqlash, ularning iste'dodlarining namoyon bo'lishi uchun reja va sharoitlar yaratishi imkoni yaratiladi. Odatda, bolalar ijodini o'rganish imkoni yaratiladi. Odatda, bolalar ijodini o'rganish manbai ko'p bo'lib, ulari: fan olimpidalar, mavzular bo'yicha konkurslar, maktablar bo'yicha ko'rgazmalar, musobaqalar, ekskursiyalar va sayllar va hokazo.

Test, So'rovnoma meto. Pedagogika ilmiy-tadqiqot metodlari ichida yetakchi metod so'rovnoma va tes savollardan foydalanishdir. So'rovnoma-anketa fransuzcha "tekishirish" ma'nosini bildiradi metodi qo'llanilganda yaratilgan ilmiy farazning yangiligini bilish, aniqlash, o'quvchilarning yakka yoki guruh fikirlarini, qarashlarini, qanday kasblargaini, qanday kasblarga qiziqishlarini, kelajak orzu-istaklarini bilish



va tegishli xulosalar chiqarish, tavsiyalar berish maqsaduda o'tkaziladi. O'zbekiston, ta'bir joiz bo'lsa Markaziy Osiyoda birinchi bo'lib test metodini maktab, oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga tadbiiq etdi. Test sinovlaridan ko'zlangan maqsad oz vaqt ichida o'quvchilarning bilimlarini yoppqsiga aniqlash, baholashdir. Bunda test savollarini qanchalik aniqlik va aql bilan fikirlash jarayoniga zarar tegmaydigan qilib tuzish ahamiyatli ekanligini nazarda tutish lozim. Test savollarining o'rni va ularni mazmunan rang-barang qilib tuzilishi, o'quvchilarning mustaqil fikirlarini yuritadi, kelajakni real baholash imkonini beradi.

Maktab hujjatlarini tahlil qilish metod . Maktab hujjatlarini tahlil qilish davlat qonunlarining amalda barajasini har bir xodimning faoligini aniqlash ularning amaliy hayotdagi faoliyatdagi kamchilik va xatolarni aniqlashga va ularning topshirilgan ish uchun mas'uliyatini oshirishga imkon beradi. Maktab hujjatlarini, rejalashtirishning barcha turlari, umumiy ta'limga doir hisob va hisobot, jadvali o'quvchilar tarkibi soni, sifat ta'lim-tarbiya ishlarini taqsimlash, o'quvchilarning delolari, sinf jurnallar, o'quvchilarning kundalik daftarlari, buyruqlar daftarlari, pedagoglar kengashi qarorlari, maktab smetmasi, maktab pasporti, inventarlar daftar va hokazolar.

Eksperement-Tajriba sinov metodi. Eksperement <eksperment> so'z lotincha <sinab ko'rish> ma'nosini anglatadi. Eksperement tajriba ishlar, asosan ta'lim-tarbiya jarayoniga aloqador ilmiy faraz yoki amaliy ishlarning tadbiiqi jarayonlarini tekshirish, aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Bunda ham ilmiy farazlarning didaktik yoki amaliy ahamiyatiga e'tibor beriladi. O'tkaziladigan tajriba ishlari ta'lim va tarbiya o'rtasidagi qonuniy aloqalarni aniqlash , natijalarni hisobga olish asosida yangi metodlarni tadbiiq etishga, ta'lim-tarbiya samaraligini oshirishga qaratiladi. Shuningdek, ta'lim-tarbiya jarayoninig borishini, tuzilishi va natijalarini oldindan ko'ra bilish imkoniyatini beradi.

Eksperiment metodi sharoitga qarab 3 xilda o'tkaziladi:

1. Tabiiy eksperiment.
2. Laboratoriya eksperment.
3. Amaliy tajriba eksperment.



Pedagogika eksperiment o'z mazmuniga ko'ra didaktik, tarbiyaviy maktabshunoslik muammolari yuzasida o'tkaziladi. Pedagogika eksperiment tajriba ishlarini o'tkazishda quyidagi talablar mavjud:

1. Ishning aniq, ilmiy jihatdan asoslangan farazini aniqlash va kutilish lozim bo'lgan natija uchun reja belgilash lozim.
2. Ilmiy ish yoki pedagogik faoliyat asoslangan farazini aniqlash va amalga oshirish borasida qo'shimcha metodlarni aniqlash.
3. Tajriba ish o'tkazish vaqtini va muddatini belgilash, tajriba uchun lozim bo'lgan asbob- uskuna va boshqa hokazolarning tayyor turishi.
4. Eksperiment natijalarini zudlik bilan tahlil qilish va tegishli xulosa chiqarish va tavsiyalar berish kerak.

Pedagogik tadqiqot statistika ma'lumotlarisiz ularning tahlilsiz o'zligini namoyon eta olmaydi. Chunki nafaqat ilmiy izlanishlar borasidagi, balki xalq ta'limi sohasidagi, jumladan, ajratilgan mablag'larning oshirilishi, xalq ta'limi muassasalarining doim o'sa borishi, darslik va o'quv qo'llanmalar, xo'jalik shartnomalari va ulardan tushayotgan mablag'larni statistika metodi orqali aniqlanadi. Respublikamizning deyarli barcha ta'lim-tarbiya muassasalari statistika ma'lumotlari bilan qurollangan kelajak rivojlanish rejalariga ega. Respublikamizning mustaqil bo'luniga qadar statistika sohasidagi chalkashliklar, atayin ortirib qo'shib yozishlar xalq ta'limi tizimda ham mavjud edi. Ularning nazorati bo'shligi va obyektiv emasligi xalq ta'lim sohasidagi chuqur islohot o'tkazilishiga olib keladi. Demak, statistik ma'lumot aniq hayotiy bo'lsa bajarilayotga ta'lim-tarbiya yoki ilmiy tadqiqotning qimmqti yuqori bo'ladi.

NATIJA VA MUHOKIMA- bu ilmiy-tadqiqot ishdagi yechimi talab qilinadigan nazariy yoki amaliy masala bo'lib, u mavzuning dolzarbligi asosida ifoda qilinadi. Ular ilmiy, ilmiy-uslubiy, ilmiy-metadologik jihatdan tadqiq etiladigan masaladan iborat bo'ladi. Ilmiy-tadqiqot ishi davomida muammoni to'g'ri qo'yish va unga mos tadqiqot maqsadini aniqlash muhim bosqich hisoblanadi.

XULOSA. Qilib aytganda, pedagogik tadqiqot metodlari o'qituvchining pedagogik faoliyatini oshirishga qaratilgan tadqiqot vazifalaining aniqligi,



o'quvchilarning yosh xususiyatlarini, bolalar psixologiyasi qonuniyatlarini hisobga olish kabi xususiyatlarini yaxshilab, uning darajasini oshiradi. Demak ilmiy tadqiqot yangi bilimlarni ishlab chiqish, bilish faoliyati turlaridan iborat. Har bir metoddan foydalanish, o'qituvchi salohatidan kelib chiqib olib boriladi. Metodlardan qay o'rinda foydalanganda ko'rinadi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR

1. X.Xodjayev. Umumiy pedagogik nazariyasi va amaliyoti. Darslik -t. sano standart nashiryoti 2017
2. B.Xodjayev, A. Choriyev, Z. Saliyeva. Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi darslik- Toshkent 'iqtisodiyot dunyosi' 2018
3. Abdullayeva Shaxzoda Abdullayevna. Askarov Abror Davlatmirzayevich. Umumiy pedagogika 2019